



**RAQAMLI ADLIYA TIZIMIDA KADRLAR SIYOSATI: ADLIYA ORGANLARI
VA MUASSASALARIGA ISHGA QABUL QILISHNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH**

G'afurova Nozimaxon Eldarovna

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirliligi huzuridagi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini

oshirish instituti professori

Davlat rahbari Sh. M. Mirziyoyev 2026 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida o'z murojaatida adliya organlari nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasdan, balki huquqni qo'llash amaliyotining markazida turuvchi, raqamli texnologiyalar orqali adolatga tez va shaffof kirishni ta'minlovchi institutga aylanishi lozimligini qayd etdi. Ayniqsa, sud, notariat, FHDY, ijro, yuridik yordam va normativ-huquqiy axborot sohalarida raqamlashtirishning sustligi, ma'lumotlar tarqoqligi va idoralararo integratsiyaning yetarli emasligi tizimli muammo sifatida ko'rsatib o'tildi.

Mazkur vazifalar zahirida adliya tizimining klassik, qog'ozga asoslangan modelidan raqamli adliya (digital justice) modeliga o'tish zarurati yotadi. Raqamli adliya esa faqat texnik modernizatsiya emas, balki huquqiy tafakkur, normativ tartibga solish va institutsional yondashuvlarning tubdan yangilanishini talab etadi. Aynan shu nuqtada kriptografiya, elektron ishonch, ma'lumotlar xavfsizligi, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi.

Adliya organlari va muassasalari faoliyatining samaradorligi, avvalo, u yerda faoliyat yuritayotgan kadrlarning kasbiy salohiyati, huquqiy bilimlari va raqamli kompetensiyalariga bevosita bog'liqdir. Shu bois adliya tizimiga ishga qabul qilish jarayonini huquqiy jihatdan puxta tartibga solish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, meritokratiya tamoyillariga asoslangan raqamli tanlov mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron adliya tizimi (E-Justice) — bu sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini raqamlashtirish, hujjat aylanishini avtomatlashtirish, sud jarayonlari shaffofligini ta'minlash hamda fuqarolar uchun yuridik xizmatlarga erkin va qulay kirish imkonini yaratishga qaratilgan kompleks raqamli tizimdir. Elektron adliya konsepsiyasining asosiy maqsadi inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirish, sud amaliyotining tezligini oshirish va adolatning ochiqligini kafolatlashdan iborat.

Ko'plab rivojlangan davlatlar, jumladan, Estoniya, Singapur, Koreya Respublikasi hamda Yevropa Ittifoqi davlatlarida e-Justice tizimining joriy etilishi sud jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan adliya tizimida sud qarorlarining asoslanish darajasi oshadi, jarayonlar bir



xillik (unifikatsiya) tamoyillariga asoslanadi va korrupsiya uchun sharoitlar keskin kamayadi⁸.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda "Elektron sud", "E-notarius", "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" kabi platformalar orqali adliya faoliyatini raqamlashtirish bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

XXI asrning raqamli transformatsiya davrida huquqiy davlat konsepsiyasi davlat boshqaruvi va sud hokimiyati faoliyatining shaffofligi, ochiqqligi hamda fuqarolar uchun qulayligi bilan bevosita bog'liqdir. Adliya va sud organlarida axborotkommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi "elektron adliya tizimi" tushunchasini shakllantirdi va uni zamonaviy demokratik davlatning ajralmas institutiga aylantirdi.

Elektron adliya tizimini rivojlantirish O'zbekistonda bir qator qonunlar va qarorlar orqali amalga oshirilmoqda, jumladan, "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun (2015 y.), "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori va boshqalar.

Elektron adliya faqat texnik platformalar majmui emas, balki adolatga erishishning yangi falsafasi — ochiq, tezkor, samarali va korrupsiyaga qarshi barqaror mexanizmdir.

Elektron adliya — bu sudlar, adliya organlari, prokuratura, advokatura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarda huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish orqali adolatga erishish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan institutsional tizimdir.

Ilmiy adabiyotlarda elektron adliyaga quyidagi xususiyatlar xosligi qayd etiladi:

- sud jarayonlarining raqamli formatda yuritilishi;
- elektron ariza va shikoyatlarni qabul qilish;
- masofaviy sud majlislari;
- sud qarorlarining ochiq e'lon qilinishi;
- sun'iy intellekt asosidagi huquqiy tahlil xizmatlari.

Elektron adliya tizimi huquqiy davlatning quyidagi tamoyillarini mustahkamlaydi:

1. **Ochiqlik** – sud qarorlari va statistik ma'lumotlarning jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi;
2. **Shaffoflik** – sud xarajatlari va jarayonlarining kuzatiluvchanligi;
3. **Sud hokimiyatining mustaqilligi** – inson omilini kamaytirish orqali bosim va korrupsiya xavfining pasayishi;
4. **Fuqarolarning adolatga erishish imkoniyati** – xizmatlarning 24/7 rejimida ko'rsatilishi.

Adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki

⁸ Smith M. Critical Digital Pedagogy and Innovative Model, Revisiting Plato and Kant: An Environmental Approach to Teaching in the Digital Era/ (2021, June 15). infed.org: Education, Community-Building and Change.
<https://www.infed.org>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



rivojlangan davlatlar tajribasi adliya organlari va muassasalari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, huquqiy xizmatlar sifatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda samarali mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi.

O'zbekiston adliya tizimida kadrlar siyosati asosan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi 08.08.2022 yildagi O'zRQ-788-son O'zbekiston Respublikasining Qonuniga⁹ hamda Prezidentning PF-5843-sonli (03.10.2019)¹⁰ va PF-95-sonli (19.06.2025) Farmonlari¹¹ asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar tanlov asosida ishga qabul qilish, meritokratiya (xizmatlarga qarab baholash), professional rivojlanish va korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillarini mustahkamlaydi.

Davlat rahbari tomonidan belgilangan ushbu vazifalarning amalda ro'yobga chiqarilishi, avvalo, adliya tizimida faoliyat yurituvchi davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy va raqamli kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonunning 42-moddasi raqamli adliya tizimi talablariga mos ravishda takomillashtirilishini taqozo etadi.

Amaldagi 42-modda davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz oshirishning umumiy asoslarini belgilagan bo'lsa-da, unda:

- raqamli kompetensiya,
 - sun'iy intellekt va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari,
 - elektron adliya tizimlarida ishlashga tayyorgarlik
- masalalari alohida normativ tartibda mustahkamlanmagan.

Shu sababli, raqamli adliya tizimini samarali joriy etish maqsadida mazkur modda doirasida davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasini raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'lash, ularni uzluksiz ravishda zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmlarini qonun darajasida mustahkamlash zarur.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish bo'yicha yangi tahrirdagi 42-modda quyidagilarni o'z ichiga oladi. Jumladand, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning davlat organlari faoliyatida, shu jumladan raqamli adliya tizimi sharoitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

⁹ 08.08.2022 yildagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zRQ-788-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni
<https://lex.uz/uz/docs/-6145972>

¹⁰ 03.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5843-son Farmoni
<https://lex.uz/docs/4549998>

¹¹ 19.06.2025 yildagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-95-son Farmoni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga huquqiy bilimlar bilan bir qatorda raqamli kompetensiya, ya'ni elektron hujjat aylanishi, davlat axborot tizimlari, raqamli huquqiy xizmatlar, ma'lumotlar bazalari, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi majburiy ravishda kiritiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasi darajasi uning bilimlari, ko'nikmalari va malakalari darajasini aniqlash imkonini beruvchi axborot tizimlari, raqamli baholash platformalari va elektron monitoring vositalari orqali davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab boriladi hamda baholash natijalari kadrlar siyosatini shakllantirishda inobatga olinadi.

Qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishning asosiy shakllaridir.

Qayta tayyorlash davlat fuqarolik xizmatchisining, shu jumladan adliya organlari xodimlarining, raqamli adliya, elektron huquqiy xizmatlar, LegalTech, axborot xavfsizligi va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha qo'shimcha kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashi maqsadida tashkil etilgan ta'lim jarayonidir.

Malaka oshirish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasini oshirishga hamda ularni muntazam ravishda yangilab borishga qaratilgan ta'lim jarayonidir.

Mustaqil ta'lim davlat fuqarolik xizmatchisining yangi bilimlar va tajribaga ega bo'lish bo'yicha ishdan bo'sh vaqtida, shu jumladan onlayn kurslar, masofaviy ta'lim platformalari va xalqaro elektron ta'lim resurslari orqali kasbiy va raqamli kompetensiyasini oshirish jarayonidir.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va raqamli kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.